



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Shaishlamova Nargiza Kabilovna	Tijorat banklari risklarini baholashda stress-test usulidan samarali foydalaniish	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No'rbo'ta o'g'li	Kredit riski	60
9.	Kurbonov Saidd Akbarovich	AQSH federal rezerv tizimi (FRT) va uning iqtisodiyotga ta'siri	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Yusupov Bexzod Yusup ugli	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Tashbaeva Rano Gaiybulloevna, Tashbaev Ulug'bek Vansitovich	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Barakaev Otabek Otaqulovich	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Chorieva Nigina Qaxramanovna	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Kuzieva Dinora Bahodirovna	Uzoq muddatli aktivlarni baholash tartibini takomillashtirish	173
24.	Umarova Gulzodaxon Kodirbekovna	Kichik biznesni muqobil mo'ljalashtirishning ilg'or xoriijiy tajribalari	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206





29	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32	Xamdamiy Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida mevachilik tarmog'ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo'llari	335
47	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun'iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50	Toshev Nurbek Janon o'g'li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371
53	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57	Xamdamiy Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411





59	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тугган ўрни	459
64	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraufdfunding platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74	Umarov Abduvahob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550
75	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Xorijiy davlatlar qarzini boshqarishga doir tajribalari va milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	557
76	Bozorov Xayrulla Xaitboyevich	Farg'ona viloyatida biznesni rivojlantirishda jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati	565
77	Умаров Баходир Султанович	Совершенствование налогового администрирования крупных предприятий реального сектора экономики	570
78	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini dalillarga asoslangan holda joriy etish va monitoring qilish modeli	579
79	Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	589
80	Хамдамов Сардор Фармон угли	Sanoat kompaniyalarining davlat xaridlarida narx shakllanishi va raqobat muhiti: lot darajasidagi ma'lumotlar tahlili	595
81	Nabixo'jayeva Dilafro'z Sobir qizi	O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida ayollar intellektual mehnatini boshqarish tizimini takomillashtirish	600



**SANOAT KOMPANIYALARINING DAVLAT XARIDLARIDA NARX SHAKLLANISHI
VA RAQOBAT MUHITI: LOT DARAJASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI****Xamdamov Sardor Farmon o'g'li**

*mustaqil izlanuvchisi (DSc), PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: sardorxamdamov@gmail.com
ORCID: 0009-0001-5072-7342*

Annotatsiya. Maqolada yirik sanoat kompaniyalarining majburiy oshkoralik doirasida e'lon qilingan lot darajasidagi ma'lumotlari asosida davlat xaridlarida narx shakllanishi va raqobat muhiti tahlil qilingan. “Uztransgaz” AJning 1565 ta loti bo'yicha narx pasayishi taqsimotining bimodal (ikki rejimli) xarakteri aniqlangan: lotlarning 37 foizida narx umuman pasaymagan, raqobatli segmentda esa pasayish 20–40 foizga yetadi. Lot o'lchami oshgan sari o'rtacha pasayish kamayib (19,6 foizdan 12,9 foizgacha), nolinch-pasayish ulushi ortishi (34 foizdan 43 foizgacha) ko'rsatilgan. 2023–2026-yillar kesimlarida nolinch-pasayish ulushining 0 foizdan 37–53 foizgacha o'sish tendensiyasi qayd etilib, uning sabablari va moliyaviy oqibatlari baholangan; raqobat monitoringi indikatorlarini joriy etish bo'yicha takliflar asoslangan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, narx pasayishi, boshlang'ich narx, raqobat, nolinch-pasayish lotlari, lot darajasidagi ma'lumotlar, sanoat kompaniyalari, oshkoralik.

**ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ И КОНКУРЕНТНАЯ СРЕДА В ГОСУДАРСТВЕННЫХ
ЗАКУПКАХ ПРОМЫШЛЕННЫХ КОМПАНИЙ: АНАЛИЗ ДАННЫХ НА УРОВНЕ
ПАРТИЙ****Хамдамов Сардор Фармон угли**

*независимый исследователь (доктор наук)
кандидат экономических наук
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: sardorxamdamov@gmail.com
ORCID: 0009-0001-5072-7342*

Аннотация. В статье на основе данных на уровне отдельных лотов, опубликованных крупными промышленными компаниями в рамках обязательного раскрытия информации, проведён анализ ценообразования и конкурентной среды в сфере государственных закупок. На примере 1 565 лотов АО «Uztransgaz» выявлен бимодальный (двухрежимный) характер распределения снижения цен: по 37 % лотов снижение цены отсутствовало, тогда как в конкурентном сегменте снижение достигало 20–40 %. Установлено, что по мере увеличения размера лота средний уровень снижения цены сокращается с 19,6 % до 12,9 %, а доля лотов с нулевым снижением возрастает с 34 % до 43 %. В разрезе периодов 2023–2026 годов отмечена тенденция увеличения доли лотов с нулевым снижением с 0 % до 37–53 %, проведена оценка причин данной тенденции и её финансовых последствий. Обоснованы предложения по внедрению индикаторов мониторинга конкурентной среды в системе государственных закупок.

Ключевые слова: государственные закупки, снижение цены, начальная цена, конкуренция, лоты с нулевым снижением, данные на уровне лотов, промышленные компании, раскрытие информации.

**PRICE FORMATION AND COMPETITIVE ENVIRONMENT IN PUBLIC
PROCUREMENT OF INDUSTRIAL COMPANIES: ANALYSIS OF DATA AT THE
LOT LEVEL**



Khamdamov Sardor Farmon oğlu

*Independent Researcher (DSc), PhD,
Tashkent State University of Economics*

E-mail: sardorxamdamov@gmail.com

ORCID: 0009-0001-5072-7342

Abstract. *The article analyzes price formation and the competitive environment in public procurement based on lot-level data published by large industrial companies under mandatory disclosure. Based on 1,565 lots of Uztransgaz JSC, a bimodal (two-regime) distribution of price reduction is identified: in 37 per cent of lots the price did not decrease at all, while in the competitive segment the reduction reaches 20–40 per cent. As lot size increases, the average reduction declines (from 19.6 to 12.9 per cent) and the zero-reduction share rises (from 34 to 43 per cent). Across 2023–2026 snapshots, the zero-reduction share grew from 0 to 37–53 per cent; the causes and financial consequences of this trend are assessed, and proposals for introducing competition monitoring indicators are substantiated.*

Keywords: *public procurement, price reduction, initial price, competition, zero-reduction lots, lot-level data, industrial companies, disclosure.*

Kirish

Davlat xaridlarida byudjet va korporativ mablagʻlar tejamkorligining bosh manbai — raqobatli savdoda boshlangʻich narxning pasayishidir. Biroq jamlanma “tejamkorlik foizi” koʻrsatkichi xarid tizimidagi real jarayonlarni yashiradi: u raqobatli va raqobatsiz lotlarni aralashtirib yuboradi. Ushbu maqolaning maqsadi — yirik sanoat kompaniyalarining lot darajasidagi ochiq maʼlumotlari asosida narx pasayishi taqsimotini, uning lot oʻlchamiga bogʻliqligini va vaqt boʻyicha dinamikasini aniqlash hamda shu asosda raqobat muhiti monitoringi boʻyicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning axborot bazasi alohida eʼtiborga molik: 2026-yil holatiga Oʻzbekistonda 161 ta davlat tashkiloti va kompaniyasi ochiq maʼlumotlar portalida (data.egov.uz) davlat xaridlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni majburiy tartibda eʼlon qiladi [1]. Yirik sanoat buyurtmachilarining ayrimlari bu maʼlumotni lot darajasida — boshlangʻich narx, shartnoma summasi, yetkazib beruvchi rekvizitlari bilan ochadi. Bu milliy ilmiy adabiyotda hanuzgacha foydalanilmagan manba boʻlib, xaridlar moliyasini tranzaksiya darajasida oʻrganishga ilk bor imkon beradi.

Shu jihatdan, lot darajasidagi maʼlumotlarni tahlil qilish xarid jarayonida raqobatning real darajasini aniqlash, narx pasayishi kuzatilmaydigan lotlarni ajratish va ularning umumiy xarid samaradorligiga taʼsirini baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv asosida narx shakllanishidagi farqlarni aniqlash hamda raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan amaliy choralarni ishlab chiqish mumkin.

Adabiyotlar sharhi

Davlat xaridlarida narx shakllanishi va raqobat muhitini oʻrganishda lot darajasidagi maʼlumotlardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Oʻzbekiston ochiq maʼlumotlar portalida davlat xaridlari boʻyicha eʼlon qilinayotgan maʼlumotlar xaridlarning alohida lotlar kesimida tahlil qilinishiga imkon yaratmoqda [1]. Xususan, “Uztransgaz” AJ boʻyicha ochiq maʼlumotlarda boshlangʻich narx va shartnoma summasi kabi koʻrsatkichlarning mavjudligi narx pasayishini bevosita hisoblash imkonini beradi [8].

Auksion nazariyasiga oid tadqiqotlarda McAfee va McMillan [2] hamda Klemperer [3] raqobat ishtirokchilarining takliflari va auksion mexanizmlarining narx shakllanishiga taʼsirini nazariy jihatdan asoslagan. Ushbu yondashuv davlat xaridlarida raqobat kuchayishi boshlangʻich narxning pasayishiga olib kelishi mumkinligini izohlash uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Davlat xaridlaridagi raqobatni baholash masalasi korrupsiya va xarid risklarini aniqlash bilan ham bogʻliq. Fazekas va Kocsis [4] davlat xaridlari maʼlumotlari asosida raqobat cheklangan





va yuqori xavf mavjud bo'lgan holatlarni aniqlash imkonini beruvchi indikatorlardan foydalanishni taklif etadi. Bu yondashuv nolinch narx pasayishiga ega lotlarni alohida monitoring qilish zarurligini asoslaydi.

Yevropa Ittifoqining 2014/24/EU direktivasida [5] haddan tashqari past takliflarni baholash va xarid jarayonlarida samarali raqobatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur xalqaro tajriba narx ko'rsatkichlarini faqat yakuniy tejamkorlik sifatida emas, balki xarid jarayonining raqobat darajasini ifodalovchi indikator sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi va uni tartibga solish masalalari Xamdami [6; 7] tomonidan tadqiq etilgan. Muallif davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi, uning tarkibiy elementlari hamda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini yoritgan. Biroq lot darajasida narx pasayishining taqsimoti, nolinch pasayishli lotlar ulushi va lot hajmi bilan narx pasayishi o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni [9] davlat xaridlarida raqobat, ochiqlik va shaffoflikning huquqiy asoslarini belgilaydi. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar davlat xaridlarida raqobat va narx shakllanishining nazariy hamda huquqiy asoslarini yetarlicha yoritgan bo'lsa-da, yirik sanoat kompaniyalari xaridlarini lot darajasida empirik tahlil qilish bo'yicha bo'shliq saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni “Uztransgaz” AJning 1 565 ta loti misolida to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi


Asosiy tanlama — “Uztransgaz” AJning 2026-yil joriy hisobot davridagi 1566 ta loti (shundan 1565 tasi to'liq ma'lumotli), har biri bo'yicha boshlang'ich narx va shartnoma summasi mavjud. Narx pasayishi har lot uchun $(1 - \text{summa}/\text{boshlang'ich narx}) \times 100\%$ formulasida hisoblandi. Taqsimot tahlili, kvintil (besh guruhli o'lcham) tahlili va 2023–2026-yillardagi 11 ta hisobot kesimi bo'yicha dinamik tahlil qo'llanildi. Qiyosiy fon sifatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati (3046 lot, 8,1 trln so'm) va “O'zbekgidroenergo” (51 lot) ma'lumotlari jalb etildi. Ma'lumotlar portal APIsi orqali olingan va takroriy tekshirilgan.

Tahlil va natijalar

Narx pasayishi taqsimoti yaqqol bimodal xarakterga ega (1-rasm, a): lotlarning 37,2 foizida (582 ta) narx umuman pasaymagan — savdo amalda raqobatsiz yakunlangan; shu bilan birga 541 ta lotda (34,6 foiz) pasayish 20 foizdan yuqori. O'rtacha pasayish 16,6 foiz, mediana esa atigi 8,0 foiz — o'rtacha ko'rsatkichning “yaxshi” ko'rinishi aynan raqobatli segment hisobiga shakllanadi. Demak, xarid tizimi amalda ikki rejimda yashaydi: raqobatli rejim (sezilarli tejamkorlik) va raqobatsiz rejim (nolinch tejamkorlik), va jamlanma statistika bu ikki rejimni farqlamaydi.

1-rasm.

Narx pasayishi taqsimoti va lot o'lchami kesimi (“Uztransgaz” AJ, 2026-y.)



Manba: «Uztransgaz» AJ lot darajasidagi ma'lumotlari (2026 yil joriy davri) asosida muallif hisob-kitobi






Lot o'ldhami kesimi (1-rasm, b) nazariy jihatdan kutilmagan natija beradi: eng yirik kvintilda (Q5) o'rtacha pasayish eng past (12,9 foiz), nolunchi-pasayish ulushi esa eng yuqori (43 foiz). Klassik mantiqda yirik lot ko'proq ishtirokchini jalb etishi kerak edi; amalda esa yirik lotlar ko'proq raqobatsiz o'tmoqda. Buning ehtimoliy izohlari: yirik lotlarda malakaviy va moliyaviy to'siqlarning (zakalat hajmi, kafolat talablari) yuqoriligi, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar doirasining torligi hamda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma istisnolaridan foydalanish. Moliyaviy oqibat jiddiy: pasayishning har 1 foiz bandi yirik kvintilda kichigidan o'nlab baravar katta mutlaq summani anglatadi — raqobat aynan katta pul turgan joyda eng zaif.

Dinamik tahlil (2-rasm) yanada muhim tendensiyanı ochadi: nolunchi-pasayish ulushi 2023-yil oxiridagi 0 foizdan 2024-yilda 12–17 foizga, 2025-yilda 16–31 foizga va 2026-yilda 32–53 foizgacha o'sgan; o'rtacha pasayish esa 21 foizdan 7–13 foizgacha kamaygan. 2026-yil aprel kesimida anomaliya qayd etildi: 1,48 trln so'mlik lotlar portfelida o'rtacha pasayish atigi 0,3 foiz, nolunchi ulush 53 foiz — bu davrga yirik to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar to'g'ri kelganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya “raqamlashtirish o'z-o'zidan raqobatni kafolatlamaydi” degan xulosaga olib keladi: elektron platforma mavjudligiga qaramay, raqobat intensivligi pasayib bormoqda va bu jarayon monitoringsiz qolmoqda.

2-rasm.

Narx pasayishi va nolunchi-pasayish ulushining dinamikasi (“Uztransgaz” AJ, 2023–2026 yy. hisobot kesimlari)*



Manba: «Uztransgaz» AJning data.egov.uz daqi rasmiy dataseti versiyalari asosida muallif hisob-kitobi (har kesim — joriy hisobot davri lotlari)

Qiyosiy fon tahlilning yana bir qatlamini ochadi: NKMKning 3046 ta loti (8,1 trln so'm) bo'yicha ma'lumotda boshlang'ich narx va shartnoma summasi aynan teng qilib yuklangan — ya'ni narx pasayishi ma'lumoti umuman kiritilmagan; ayrim yirik kompaniyalarning datasetlari esa bo'sh. Demak, majburiy oshkoralik instituti rasman ishlaydi, lekin ma'lumot sifati nazorat qilinmaydi — bu holat oshkoralik orqali jamoatchilik nazoratini amalda cheklaydi va raqamli monitoring tizimi zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa

Birinchidan, lot darajasidagi tahlil jamlanma statistika yashirib kelgan ikki rejimli haqiqatni ochdi: sanoat kompaniyalari xaridlarining uchdan biridan ko'pi narx pasayishsiz o'tmoqda va bu ulush barqaror o'sib bormoqda — raqobat muhiti monitoringi davlat xaridlari siyosatining ustuvor vazifasiga aylanishi lozim.

Ikkinchidan, “nolunchi-pasayish ulushi” ko'rsatkichini (xalqaro singl-bid indikatorining milliy moslashuvi sifatida) maxsus axborot portalida avtomatik hisoblanadigan va ochiq e'lon qilinadigan rasmiy indikator sifatida joriy etish taklif etiladi; yirik lotlar uchun g'ayrioddiy past takliflarda xarajatlar asosnomasini so'rash (YEI ALT mexanizmi analogi) maqsadga muvofiq.





Uchinchidan, lot o'lchami oshgan sari raqobatning zaiflashuvi yirik xaridlarda maxsus choralar (lotlarni oqilona maydalash, ramkaviy kelishuvlar, kafolat vositalarini naqd zakalat o'rniga qabul qilish orqali ishtirok to'siqlarini kamaytirish) zaruratini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, oshkor qilinayotgan ma'lumotlar sifati (to'liqligi, formatlari, yangilanishi) ustidan nazoratni vakolatli organ zimmasiga yuklash va sifat talablarini me'yoriy belgilash lozim. Keyingi tadqiqotda mazkur tanlama asosida narx pasayishining omillarini ekonometrik baholash rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portal: davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plamlari // data.egov.uz (murojaat: 25.08.2026).
2. McAfee R.P., McMillan J. Auctions and Bidding // Journal of Economic Literature. – 1987. – Vol. 25, No. 2. – P. 699–738.
3. Klemperer P. Auctions: Theory and Practice. – Princeton: Princeton University Press, 2004. – 246 p.
4. Fazekas M., Kocsis G. Uncovering High-Level Corruption: Cross-National Objective Corruption Risk Indicators Using Public Procurement Data // British Journal of Political Science. – 2020. – Vol. 50, No. 1. – P. 155–164.
5. Directive 2014/24/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014 on public procurement (Art. 69) // Official Journal of the European Union. L 94.
6. Xamdamov S.F. Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari // Agrobiznes, fan va texnologiyalar. – 2026. – №7.
7. Xamdamov S.F. Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari // Moliyaviy texnologiyalar. – 2026. – №4 (Vol. 5). – B. 43–47.
8. “Uztransgaz” AJ davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami (lot darajasida) // data.egov.uz (murojaat: 25.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 22.04.2021-y., O'RQ-684-son // lex.uz.

